ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida) 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida) 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

EPITET – BADIIY MATNNI OBRAZLI IFODALOVCHI VOSITA

Ergasheva Dilrabo Allanazarovna,
Termiz davlat universiteti doktaranti (DSc)

Badiiy tasvir badiiy nasr poetikasining muhim tarkibiy qismi, matnning badiiy-bo'yoqdorligini, estetik-ta'sirchanligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Badiiy nutqda qo'llaniladigan barcha so'zlar u yoki bu darajada tasviriylikni vujudga keltiradi. Chunki har qanday so'z matnda o'ziga xos ma'no ifodalaydi, voqea-hodisaning tasvirini yaratadi. Shuningdek, tilda tasviriylikni vujudga keltiruvchi maxsus vositalar ham mavjud bo'lib, ular fikrni obrazli ifodalash asosida badiiy ta'sirchanlikni kuchaytiradi. Shunday vositalardan biri epitetlar bo'lib, badiiy obrazlilikni ta'minlovchi tasviriy vosita sifatida qaraladi[1]. Epitet umumuslubiy vosita. U nutqning barcha turlarida qo'llaniladi, narsa, hodisaning biror xususisyatini belgi sifatida alohida ta'riflash vazifasini bajaruvchi tasviriy vositadir.

Epitet – bu tasvirni yaratadigan ta'rif. R.Qo'ng'irov sifatlashlarning doimiy aniqlovchilardan farqli ravishda ekspressivligi, epitetlardek ko'chma ma'noda ishlatilishi kabi xususiyatlari mavjudligini ta'kidlab, uni poetik aniqlovchi deb ataydi[2]. Darhaqiqat, epitetlar, obrazlilik darajasining kuchliligi, emotsional-ekspressivligi va nihoyat badiiy nutqqa xosligi jihatidan aniqlovchidan keskin farq qiladi. Epitetlar borasida olib borilgan tadqiqotlar har xil ilmiy qarashlar asosida shakllangan bo'lib, har biri bu badiiy vositaning mohiyatini, vazifasini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Tilshunoslar epitetni leksik-semantik, sintaktik-stilistik nuqtayi nazardan o'rganishgan. Ba'zi olimlar epitetni obrazlilik va emotsional-eksperssivlik vositasi sifatida talqin qilgan bo'lsa, boshqalari uni poetik tafakkurning maxsuli sifatida qarashgan.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunoslari tadqiqotlarida epitetlarning mazmun-mohiyati yetarlicha tadqiq qilinmoqda. Ularning fikricha, epitetlar biror-bir narsa hodisaning belgisini nutq kechimida atash hisoblanadi. Epitetlar sifat va ot turkumidagi so'zlardan hosil bo'lib, bu so'zlar epitetli birikma tarkibida qo'llanar ekan, hamma vaqt o'xshatish qurilmasiga ham qurilish ham ma'no jihatidan juda o'xshab ketadi. Bizga ma'lumki, epitet biror birikma tarkibiga kirganda, bu birikma epitetli birikma deb qaraladi[3]. Odatda epitetning metafora va metonimiyaga o'xshash tomonlari ham bor, ayni chog'da ulardan keskin farq qilinishini ham anglash lozim[4]. Epitet obraz yaratishda, uning sifatiy belgisini ifodalashda mihim ahamiyat kasb etadi, epitetli birikmalarning tiplari shu birikmaning hokim bo'lagiga qarab belgilanadi. Epitetli birikmaning ma'nosi qaysi turkumga oid bo'lmasin, agar tarkibida o'xshatish qurilmasining subyekt va etaloni bilan bir xil kelsa, o'xshatish qurilmasi ma'nosi bilan bir xil shakllanadi. Masalan, *Hovli zimiston. Kungurador devor bilan o'ralgan Ko'ksaroy, maqbaralarga o'xshash tepasi gumbaz, muazzam binolar, ...– hammasi jimjit va qorong'u edi.* (O.Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi") Ushbu matnda *muazzam binolar* epitetli birikma, juda ulkan, beqiyos, nihoyatda buyuk, ulug'vorlik o'xshatish qurilmasining ma'nosini ifoda etib kelgan. Lekin ular uslub nuqtayi nazardan farq qiladi. O'xshatish qurilmasida birinchi o'rinda ulug'vorlik bo'lib, bu ulug'vorlikni binoga qiyoslash ikkinchi o'rinda turadi. Epitetli birikmada birinchi o'rinda to'g'ridan-to'g'ri binoning muazzamligi ifodalangan bo'ladi. Ot epitetli birikma bilan sifat o'xshatish qurilmasi tarkibi nuqtayi nazaridan o'xshash va farqli tomonlarga ega.

Fe'l epitetli birikmalar fe'l asosli o'xshatish qurilmasiga juda yaqin turadi. Masalan, *Lochin ko'kragini kerib, Burgutning o'ziga o'xshab qirg'iy qarash qildi.* (O.Yoqubov. "Adolat manzili") gapidagi epitetli birikma *qirg'iy qarash qildi* birikmasi bo'lib, uning ma'nosi *qirg'iydek qaradi* o'xshatish qurilmasini beradi. Ya'ni epitetli birikmaning *qaradi* kesimi o'xshatish qurilmasining *qirg'iy qarash qildi* kesimining garchi ixchamlashgan ko'rinishi bo'lsa ham, uning bir *yomon qaraganlik* semasiga reallashgan va obrazli, majoziy ifodani aks etadi. Epitetni ayrim tadqiqotchilar aniqlovchiga tenglashtirishlarini, holbuki, bu ikki hod-

[1] Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – М., 1961; Стилистика русского языка. – М., 1969; Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Л., 1973; Долинин К.А. Стилистика французского языка. – Л., 1978.
[2] Qo'ng'irov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – B. 46.
[3] Shukurov I. Nutqiy ko'chma ma'nolarning hosil bo'lishi va konversiya. // O'zbek tili va adabiyoti, 1975, 5-son. – B. 68.
[4] Tohirov Z. Matoforik leksema semasining pragmatik semasi. // O'zbek tili va adabiyoti, 1983, 1-son. – B. 76.

isa bir-biridan farqlanishini, aniqlovchi umumnutqqa xos bo'lib, til hodisasi sanalib, predmetning rangini, shaklini, xususiyatini, miqdor-darajasini, yoki biror predmetga qarashliligini bildiradi. Epitet esa badiiy nutqqa xos bo'lib, tasviriy vosita sifatida predmetning belgi, xususiyatini ko'rsatadi. O'xshatish qurilmasining tarkibidagi so'zlar nominativ ma'nosi bilan qo'llanishi unda subyektiv munosabat ifoda topmasligi, epitetli birikmalardagi epitetlar esa, albatta, majoziy ma'noga ega ekanligi va emotsional ekspressivlik ifodasini berishi bilan farqlanadi. Epitetli birikmalar o'xshatish qurilmasining o'xshatish formanti tushib qolgan ko'rinishi hisoblanadi. Shuning uchun mana shu formant asosida o'xshatish qurilmasini epitetli birikma, epitetli birikmani o'xshatish qurilmasiga aylantirish imkoniyati nutqda saqlanadi[1]. Epitetli o'xshatish formanti vositasida qayta o'xshatish qurilmasiga aylantirib bo'lmaydi. Epitet ikki komponentdan iborat: sifatlovchi va sifatlanmish. Masalan, *oltin qo'llar, tizginsiz dard, g'amnok yurak, aqlli soat, otash qalb, muz yurak* kabi. O'xshatish to'rt komponentdan iborat bo'ladi: o'xshatiluvchi obyekt, o'xshovchi obraz, shakliy ko'rsatkich, o'xshatma belgi. Masalan, *ayiqdek pahlavon yigit, popukday qiz, marmarday silliq bo'yin, qo'rg'oshindek qop-qora bulut, marmarday oppoq bilak, shalg'omday qizil bosh* va boshqalar. Aksar hollarda o'xshatishli qurilmalarni epitetga aylantirib bo'lmaydi: *anorday qip-qizil ko'ylak, marmarday oppoq bilak, qo'rg'oshindek qop-qora bulut* kabi. Aytish joizki, ayrim o'rinlarda epitet metaforaga o'xshab ketadi, ammo ularning farqli jihatlari mavjud: Epitetlarda aniqlovchi yoki sifatlovchi ko'chma ma'noda qo'llanadi: *mudhish o'y, ma'yus chehra, tizginsiz iztirob, mas'ud damlar, mungli ovoz, o'ychan nigoh, so'lg'in yuz, g'am-anduhga to'la ovoz, sovuq muomala, kinoyali tabassum* kabi. Metaforada esa aniqlanmish ko'chma ma'noda qo'lanadi: *esdaliklar tug'yoni, shamol qamchisi, qish qahri, ga'flat uyqusi* kabi. Masalan, *Qalandar esdaliklar tug'yoni bilan olishib, rasadxonani bir aylanib chiqdi.* (O.Yoqubov "Ulug'bek xazinasi") Aslida metafora ham epitet ham bir so'z doirasida shakllanadi, ya'ni shakl jihatidan qaralsa, epitet sifatida qo'llangan so'z ma'nosi bir sema orttirgandagina metaforaga aylanadi. Epitet va matafora bir-biriga shu qadar singishib ketganki, ularning qat'iy chegarasini qo'yish imkoni yo'qdek tuyuladi. Ko'pgina tadqiqotchilar epitetni mataforadan o'sib chiqqan deb hisoblasalar, ayrim tilshunoslar o'ziga xos bo'lgan farqli jihatlarini ko'rsatadilar: Epitetning vazifasi aniqlovchisi, metaforaning vazifasi aniqlanmish ko'chma ma'noda kelishi bu ikkisining farqini anglatadi. Umuman olganda, metafora, epitet, o'xshatish o'rtasida ichki o'xshashlik mavjud: metafora, epitet va o'xshatishning asosida o'xshatish munosabati mavjud bo'ladi. Shu bois ba'zan matnda qaysi uslubiy vosita ekanligini aniqlash qiyinchilik tug'diradi. Uslub talabi bilan epitet va metafora grammatik vositalari qisqargan o'xshatishga teng kelib qoladi. Bu tilshunoslikda chigallikka olib keladi. O'xshatishli qurilma tarkibi kelgan so'zlar denotativ ma'noda, metafora va epitet vazifasidagi so'zlar konnotativ ma'no ifodalashi bilan xarakterlidir. O'xshatishning yaqqol ko'rinib turgan grammatik vositasi mavjud: dek, -day qo'shimchalari bilan ifodalangan *paridek qiz, burgutdek yigit, mushukdek muloyim, onasidan ayrilgan bo'taday* kabi birikmalarda o'xshatish aniq ko'zga tashlanib tursa, metafora va epitetda bunday grammatik vositalarni qo'llab bo'lmaydi. *Mungli ko'zlar, sehrli yulduzlar, qora xayol,oppoq orzular* kabi epitetli birikmalar orasida -dek, -day qo'shimchasini qo'llab bo'lmaydi. Metafora obrazli, majoziy ma'nolar ifodalasa, epitet narsa va predmet, hodisani tasviriy ifodalab, badiiy matnda qahramonlar harakterining, tabiat hodisalarining emotsional-ekspressivligini va belgi xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *Mirzo Ulug'bek o'pkasi to'lib, kalima keltira boshladi, lekin ko'z yoshi aralash tepasiga kelib to'xtagan Sayid Abbosning* ***qora quzg'un vajohatini****, boshi uzra ko'tarilgan qilichini ko'rdi, ko'rdi-yu ijirg'anib ko'zlarini yumarkan,* ***bandalikning g'urbatini*** *tan olib: "Alvido Ali! ... – deb pichirladi.* (O.Yoqubov "Ulug'bek xazinasi") Ushbu matnda berilgan ***qora quzg'un vajohat*** epitetli birikma hisoblansa, ***bandalikning g'urbati*** birikmasi metafora hisoblanadi. Chunki *qora quzg'un* epitetida aniqlovchi ko'chma ma'noda qo'llangan, *bandalikning g'urbati* metafora, aniqlanmish ko'chma ma'noda ifodalangan.

Nasr milliy tilning yashash shakllaridan biri, adabiy til uslubining o'ziga xos nutqiy ko'rinishi, tilning badiiy-estetik vazifasini yuzaga chiqaradigan nutqiy jarayon, nutqiy san'at, til vositalaridan foydalanish mahoratini namoyon etuvchi lisoniy maydon.

Badiiy nasrning tasviriy vositalaridan biri hisoblangan epitet fikrning obrazliligi, tasviriyligini kuchaytiruvchi, favqulodda poetik ifodadorlik ko'lamining kuchliligi bilan ajralib turuvchi ifoda usullaridan biridir. Epitetlar badiiy nasrning mohiyatini namoyon qiluvchi o'ziga xos xususiyatlarini yuzaga chiqaruvchi muhim vositalardan. Binobarin, bu vositalar badiiy matnlarda nutqning boshqa turlariga nisbatan keng ko'lamda qo'llaniladi va turli nutqiy imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Shu xususiyatlariga ko'ra ham ular badiiy yoki tasviriy vositalar deb yuritiladi. Ulardagi ma'no ko'chishi orqali fikr ifodalanishi, narsa, predmetdagi muayyan belgilar asosida predmetlarning qiyoslanishi va ta'riflanishi ushbu tasviriy vositalarn-

[1] Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: 1976. – В. 19

ing uslubiy vazifalarini kengaytiradi. Tasviriy vositalar badiiy nutqda turli vazifalarni bajarsa ham, ular funksional nuqtayi nazardan qisman alohidaliklarga ega. Chunonchi, metafora asosan obrazlilikka, badiiylikka xizmat qilsa, epitet tasviriylikka xizmat qiladigan vositadir. Biroq har qanday holatda ham ushbu tasviriy vositalar badiiy nutqning tub mohiyati estetik ko'lamini namoyon etadi. Shu boisdan, badiiy nutqni ushbu vositalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Epitetlar borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar har xil ilmiy qarashlar asosida shakllangan bo'lib, har biri bu badiiy vositaning mohiyatini, vazifasini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Tilshunoslar epitetni leksik-semantik, sintaktik va stilistik nuqtayi nazardan o'rganishgan. Ba'zi olimlar epitetni obrazlilik va emotsional-ekspressivlik vositasi sifatida talqin qilgan bo'lsa, boshqalari uni poetik tafakkurning mahsuli sifatida qaragan. Umuman olganda, epitetga berilgan nazariy ta'riflar uning san'atkor tilidagi ahamiyati, funksional imkoniyatlari va estetik yukini ochib berishga xizmat qiladi. Shu bois, keyingi tadqiqotlar uchun epitetlar bo'yicha mavjud ilmiy qarashlar bu badiiy vositaning o'rganilishi, tahlil qilinishi hamda tasniflanishi ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Rezyume. Ushbu maqolada epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita sifatida badiiy asarlardan olingan matnlar orqali lingvopoetik tahlilga olingan. Epitet obraz yaratishda, uning sifatiy belgisini ifodalashda mihim ahamiyat kasb etishi, epitetli birikmalarning tiplari shu birikmaning hokim bo'lagiga qarab belgilanishi matnlardan olingan misollar asosida tahlil qilingan. So'z turkumlari doirasida ot epitetli va fe'l epitetli birikmalar solishtirlib tasniflangan. Shuningdek epitetning o'xshatish va metaforadan farqli va o'xshash jihatlari asoslab berilgan. Metafora asosan obrazlilikka, badiiylikka xizmat qilsa, epitet tasviriylikka xizmat qiladigan vositadir degan umumiy qarashlar bayon etilgan.

Resume. In this article, epithet – is analyzed linguopoetically through texts from works of art as a means of figurative representation of the artistic text. The importance of epithete in creating an image, expressing its qualitative sign, and the fact that the types of epithet compounds are determined according to the dominant part of this compound were analyzed based on the examples taken from the texts. Within word groups, noun epithet and verb epithet compounds are compared and classified. Also, the aspects of the epithet that are different from similes and metaphors are justified. General views are expressed that if the metaphor mainly serves imagery and artistry, the epithet is a tool that serves imagery.

Резюме. В данной статье эпитет – был подвергнут лингвопоэтическому анализу через тексты из художественных произведений как средство образного выражения художественного текста. Эпитет анализируется на основе примеров из текстов, где михим приобретает значение при создании образа, при выражении его знака сифатия, а типы соединений с эпитетами определяются фрагментом наместника этого соединения. В рамках родов слов были классифицированы как сопоставимые соединения с эпитетами существительных и эпитетами глаголов. Обоснованы также различные и сходные с аналогией и метафорой аспекты эпитета. Изложены общие взгляды, что эпитет – это средство, служащее иллюстративности, когда метафора служит в основном образности и художественности.